

Yadro fizikasi sohasidagi hamkorlik

Rossiya va O'zbekiston o'rtasida davlatlararo hamkorlik rejasiga muvofiq, 2018-yil 15-iyun kuni Toshkentda Yadroviy tadqiqotlar bo'yicha yagona institutning (Dubna) bosh direktori, Rossiya Fanlar akademiyasi akademigi V.Matveev va uning hamrohlari Toshkentga keldi.

Mehmonlar O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi institutiga tashrif buyurdi va Institut faoliyati bilan yaqindan tanishdi. So`ngra ikki mamlakat vakillari o'rtasida zamonaviy yadro fizikasi va texnologiyalar sohasidagi ilmiy-texnikaviy hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha uchrashuv bo'lib o'tdi.